

O‘zbekiston Respublikasida ekologik turizm resurslarini barqaror rivojlanish tamoyillari asosida boshqarish: jahon tajribasi va milliy model

Toshmuradov Jonibek Poyon o‘g‘li

Nordik xalqaro universiteti magistranti

+998882005672

jonibektoshmuradov8@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola O‘zbekiston Respublikasida ekologik turizm resurslarini barqaror rivojlanish tamoyillari asosida boshqarishning nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlarini o‘rganadi. Tadqiqotda ecotourism governance adabiyoti, xalqaro eng yaxshi boshqaruv modellarining o‘zaro solishtiruv va ularni milliy sharoitga moslashtirish yo‘nalishlari tahlil qilindi. Global tajribalar asosida O‘zbekiston uchun ko‘p o‘lchovli boshqaruv modeli ishlab chiqildi. SWOT tahlili yordamida milliy boshqaruv tizimining kuchli va zaif tomonlari hamda amaliy imkoniyatlar aniqlanib, strategik yo‘nalishlar taklif etildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, barqaror ekoturizmni ta‘minlash uchun institutsional uyg‘unlik, ekologik monitoring, jamoa ishtiroki va yashil moliyalashtirish mexanizmlari samarali ishlashi lozim.

Kalit so‘zlar: Ekoturizm; barqaror rivojlanish; boshqaruv samaradorligi; jahon tajribasi; O‘zbekiston; monitoring; institution building.

Аннотации: В статье рассматривается устойчивое управление ресурсами экологического туризма Республики Узбекистан на основе мирового опыта и национального институционального развития. Исследование обобщает международную научную литературу по вопросам управления экотуризмом,

сравнивает ключевые модели Европейского Союза, Канады и Юго-Восточной Азии и предлагает многомерную модель управления, адаптированную к социально-экологическому контексту Узбекистана. SWOT-анализ выявляет сильные и слабые стороны национальной системы управления. Результаты указывают на необходимость институциональной согласованности, экологического мониторинга, участия сообщества и зелёного финансирования. Предложенная модель представляет собой стратегический путь для устойчивой политики туризма и управления ресурсами.

Ключевые слова: управление экотуризмом; устойчивое развитие; институциональная эффективность; мировой опыт; Узбекистан; политика.

Abstract: This study examines the sustainable governance of ecotourism resources in the Republic of Uzbekistan within the framework of global best practices and national institutional development. The research synthesizes international ecotourism governance literature, compares key models from the European Union, Canada, and Southeast Asia, and proposes a multidimensional governance model tailored to Uzbekistan's socio-ecological context. A SWOT analysis identifies strengths, weaknesses, opportunities and threats in the current national governance system. Results indicate that institutional coherence, ecological monitoring, community participation, and green financing are critical to sustainable ecotourism governance. The proposed framework offers a strategic pathway for long-term sustainable tourism policy and resource management.

Key words: Ecotourism governance; sustainable development; institutional efficiency; global experience; Uzbekistan, policy.

Kirish

Ekoturizm — bu atrof-muhitni muhofaza qilish, mahalliy hamjamiyatlarni qoʻllab-quvvatlash va iqtisodiy daromadlarni yaratishning birlashtirilgan turi boʻlib, barqaror

turizm kontseptsiyasining asosiy qismidir (Honey, 2008; Weaver, 2008). Jahon bo'yicha turizm sanoati global iqtisodiyotga sezilarli hissa qo'shsa-da, uning tabiiy resurslarga bo'lgan salbiy ta'sirini kamaytirish barqaror boshqaruv talablarini kuchaytirmoqda (Buckley, 2012).

O'zbekiston Respublikasi o'zining boy biologik xilma-xilligi, milliy bog'lari, tog' landshaftlari va madaniy merosi bilan ekoturizm salohiyatiga ega bo'lishiga qaramay, bu sohada barqaror boshqaruv mexanizmlari hali to'liq shakllanmagan. Yuqoridagi omillar ekologik degradatsiya, boshqaruvdagi fragmentatsiya va monitoringning zaifligi kabi muammolarni yuzaga keltirmoqda (Sharopov, 2022).

Ushbu maqolaning maqsadi quyidagilarni o'rganishdan iborat:

1. Jahon tajribasidagi ekoturizm boshqaruvi modellarini tahlil qilish;
2. O'zbekiston kontekstida mavjud boshqaruv tizimi bo'shliqlarini aniqlash;
3. Milliy sharoitga mos integratsiyalashgan boshqaruv modelini ishlab chiqish;
4. SWOT tahlil asosida strategik yo'nalishlarni belgilash.

Adabiyotlar tahlili

Barqaror turizm konsepsiyasi uch asosiy ustun — ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikka asoslanadi (UNWTO, 2019). Ekoturizm bu tamoyillarni amaliyotga tatbiq etish vositasi sifatida qaraladi, chunki u atrof-muhitni muhofaza qilish va mahalliy aholi farovonligini oshirishni birlashtiradi (Honey, 2008).

Gössling va boshqalar (2017) ekologik boshqaruvning uchta asosiy mexanizmini ajratib ko'rsatadi: yuklama sig'imi (carrying capacity), monitoring tizimi va stakeholderlar o'rtasidagi muvofiqlashtirish. Bu mexanizmlar barqaror turizmning samarali boshqaruvini ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi.

Yevropa Ittifoqi ekologik turizmni rivojlantirishda "ko'p darajali boshqaruv" (multi-level governance) va Natura 2000 uslubini qo'llaydi. Natura 2000 hududlarida ekologik monitoring tizimi qat'iy tartibga solingan bo'lib, u atrof-muhit indikatorlarini doimiy ravishda kuzatadi (European Commission, 2018).

Kanadada milliy bog‘lar boshqaruvi ko-boshqaruv (co-management) tamoyiliga asoslanadi, ya’ni davlat va mahalliy hamjamiyatlar qaror qabul qilish jarayonida hamkorlik qiladi (Sandell & Bushell, 2007). Bu yondashuv ekologik boshqaruv va hamjamiyat manfaatlarini uyg‘unlashtiradi. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari, xususan Tailand va Indoneziya, ecotourismni mahalliy hamjamiyatning turizm manfaatlariga jalb qilish orqali boshqaradi. Biroq bu tajribalarda cheklovli monitoring mexanizmlari tufayli ekologik bosim muammosi yuzaga kelgan (Honey & Krantz, 2007).

Buckley (2012) boshqaruv samaradorligini normativ-huquqiy asos, monitoring, stakeholderlar bilan hamkorlik va moliyaviy barqarorlik orqali o‘lchaydi. Samardor boshqaruv resurslardan oqilona foydalanishga, ekologik zararlarni kamaytirishga va ijtimoiy manfaatlarini ta’minlashga yordam beradi.

Metodologiya

Ushbu maqola konseptual-analitik metodologiyaga asoslangan. Bu quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Systematic literature review (Scopus va Web of Science bazalaridan olingan ilmiy maqolalar);
- Xalqaro boshqaruv modellarini tahlil qilish;
- O‘zbekiston normativ-huquqiy hujjatlari tahlili;
- Milliy boshqaruv modelini ishlab chiqish;
- SWOT tahlil orqali strategik yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatish.

Ma’lumotlar bazasi sifatida quyidagilar tanlandi: Scopus indeksli maqolalar, UNWTO va European Commission hisobotlari, shuningdek O‘zbekiston hukumatining rasmiy hujjatlari.

Tadqiqot konseptual-analitik va qiyosiy yondashuvga asoslanib, Scopus va Web of Science ma’lumotlar bazalaridagi ilmiy manbalar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda O‘zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari asosida ekologik turizm boshqaruvining nazariy asoslari va amaliy modellarini tizimli ravishda tahlil qilishni nazarda tutadi.

Natijalar

O‘zbekiston ekoturizmni tartibga soluvchi qonunchilik mavjud bo‘lsa-da, turizm, ekologiya va mahalliy boshqaruv organlari o‘rtasida samarali koordinatsiya mexanizmi yo‘q. Bu natijada vakolatlarning ortiqcha bo‘linishi va siyosiy qarorlar uyg‘un bo‘lmashligiga olib keladi.

Jahon tajribasidagi kabi qat’iy ekologik monitoring tizimi hali rivojlanmagan. Melioratsiya, biometrik sensorlar, GIS monitoringi, yuklama sig‘imi hisoblash mexanizmlari tizimatik joriy etilmagan (Newsome et al., 2013). Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, mahalliy aholining qaror qabul qilishdagi roli cheklangan. Ko-boshqaruv mexanizmlari yuzaki yoki formal darajada qolmoqda.

Ekoturizmni rivojlantirishga qaratilgan yashil investitsiyalar va moliyaviy vositalar amaliyotga chuqur tatbiq etilmagan. Davlat grantlari mavjud bo‘lsa-da, uzoq muddatli barqaror moliyalashtirish modeli shakllanmagan.

SWOT tahlil: Ekologik turizm resurslarini barqaror boshqarish tizimi

Kuchli jihatlar:	Kuchsiz jihatlar:
➤ Boy tabiiy landshaft va biologik xilmaxlilik; ➤ Davlat siyosatining turizmni rivojlantirishga yo‘naltirilganligi; ➤ An’anaviy madaniy merosning jozibadorligi.	➤ Institutsional uyg‘unlikning yetishmasligi; ➤ Monitoring va raqamli tizimlarning sustligi; ➤ Mahalliy aholi ishtirokining yetishmasligi.

Imkoniyatlar:	Tahdidlar:
➤ Yashil investitsiyalar va grantlar jalb etish; ➤ Xalqaro hamkorlik va ekspert tarmogʻi; ➤ Raqamli boshqaruv platformalarini joriy etish.	➤ Ekologik degradatsiya va resurslarning barqaror boʻlmagan foydalanilishi; ➤ Iqlim oʻzgarishining salbiy taʼsiri; ➤ Iqtisodiy barqarorlikning noaniqligi.

Muhokama

Mazkur tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, ekologik turizm resurslarini barqaror boshqarish tizimi nafaqat normativ-huquqiy bazaning mavjudligi, balki institutsional uygʻunlik, boshqaruv samaradorligi va manfaatdor tomonlar oʻrtasidagi hamkorlik darajasiga ham bevosita bogʻliqdir. Jahon tajribasi tahlili shuni tasdiqlaydiki, ekologik barqarorlikka erishishda koʻp darajali boshqaruv (multi-level governance) va ko-boshqaruv (co-management) mexanizmlari hal qiluvchi rol oʻynaydi. Ayniqsa, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida qoʻllanilayotgan monitoring asosidagi adaptiv boshqaruv modeli resurslardan foydalanishning ekologik chegaralarini aniqlash va nazorat qilish imkonini beradi.

Oʻzbekiston sharoitida olib borilgan tahlillar shuni koʻrsatadiki, normativ-huquqiy asos mavjud boʻlishiga qaramay, turizm, ekologiya va mahalliy boshqaruv organlari oʻrtasidagi funksional integratsiya yetarli darajada emas. Institutsional fragmentatsiya resurslarni boshqarishda takrorlanish va masʼuliyatning noaniqligiga olib kelmoqda. Bu

esa barqarorlik tamoyillarini amaliyotga tatbiq etishda muayyan to‘siqlarni yuzaga keltiradi.

Shuningdek, ekologik monitoring mexanizmlarining sustligi muhokamaning muhim jihatlaridan biridir. Xalqaro tajribada yuklama sig‘imi (carrying capacity) ko‘rsatkichlari asosida tashrif buyuruvchilar oqimini tartibga solish samarali natija bergan bo‘lsa, O‘zbekistonda bu ko‘rsatkichlar tizimli ravishda hisoblanmaydi. Raqamli texnologiyalar — GIS tizimlari, masofaviy monitoring, real vaqt rejimidagi tashrifchi hisoblagichlar — hali to‘liq joriy etilmagan. Bu esa ekologik xavflarni oldindan aniqlash imkoniyatini cheklaydi.

Moliyaviy barqarorlik ham muhokamaning muhim komponentidir. Ekoturizmni rivojlantirishda yashil investitsiyalar, davlat-xususiy sheriklik (PPP) mexanizmlari va ekologik fondlar muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi tizimda moliyalashtirish ko‘proq davlat tashabbuslari bilan cheklanib, diversifikatsiyalangan investitsiya manbalari yetarli darajada shakllanmagan. Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston uchun samarali milliy model quyidagi elementlarni o‘z ichiga olishi lozim:

- Institutsional vakolatlarning aniq taqsimlanishi va koordinatsiya markazini shakllantirish;
- Ekologik monitoringni raqamlashtirish va yuklama sig‘imi indikatorlarini joriy etish;
- Mahalliy hamjamiyat va xususiy sektor ishtirokini kuchaytirish;
- Yashil moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish;
- Adaptiv boshqaruv yondashuvini institutsional darajada mustahkamlash.

Shu bilan birga, ekologik turizmni rivojlantirish iqlim o‘zgarishi, resurslarning degradatsiyasi va global iqtisodiy noaniqlik kabi omillar bilan chambarchas bog‘liq ekanligi inobatga olinishi kerak. Demak, milliy model uzoq muddatli strategik barqarorlikka yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur.

Xulosa

Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasida ekologik turizm resurslarini barqaror rivojlanish tamoyillari asosida boshqarishning nazariy va amaliy asoslarini chuqur tahlil

qildi. Jahon tajribasi va milliy sharoitning qiyosiy o'rganilishi shuni ko'rsatdiki, barqaror ekoturizm boshqaruvi institutsional uyg'unlik, ekologik monitoring, manfaatdor tomonlar integratsiyasi va moliyaviy barqarorlikning kompleks uyg'unligiga tayanadi.

Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

Birinchidan, normativ-huquqiy baza mavjud bo'lsa-da, uning amaliy ijrosini ta'minlaydigan koordinatsiyalashgan institutsional mexanizm zarur. Vakolatlarning aniq chegaralanishi va markaziy muvofiqlashtirish organining mavjudligi boshqaruv samaradorligini oshiradi.

Ikkinchidan, ekologik monitoring tizimi modernizatsiya qilinishi lozim. Raqamli texnologiyalar va ilmiy asoslangan indikatorlar joriy etilishi barqarorlikni nazorat qilishda muhim vosita bo'ladi. Yuklama sig'imi ko'rsatkichlarini amaliyotga tatbiq etish ekologik degradatsiyaning oldini olishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, mahalliy hamjamiyatlarning qaror qabul qilish jarayoniga faol integratsiyasi ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Ko-boshqaruv modeli uzoq muddatli iqtisodiy va ekologik samaradorlikni ta'minlaydi.

To'rtinchidan, yashil moliyalashtirish mexanizmlari va davlat-xususiy sheriklik tizimini rivojlantirish ekoturizm infratuzilmasini barqaror moliyaviy asos bilan ta'minlaydi.

Taklif etilgan milliy model quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- Integratsiyalashgan boshqaruv;
- Adaptiv siyosat mexanizmi;
- Raqamli monitoring;
- Ekologik va iqtisodiy muvozanat;
- Manfaatdor tomonlar ishtiroki.

Mazkur model O‘zbekiston Respublikasida ekologik turizm resurslarini samarali va barqaror boshqarish uchun strategik yo‘l xaritasi sifatida xizmat qilishi mumkin. Kelgusida empirik tadqiqotlar, statistik modellash va hududiy dala tadqiqotlari orqali modelning amaliy samaradorligini sinovdan o‘tkazish tavsiya etiladi.

Umuman olganda, ekologik turizmni barqaror rivojlantirish O‘zbekistonning uzoq muddatli ekologik xavfsizligi, hududiy iqtisodiy o‘sishi va xalqaro turizm bozorida raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Buckley, R.** (2012). *Sustainable tourism: Research and reality*. Annals of Tourism Research, 39(2), 528–546.
2. **European Commission.** (2018). *Sustainable Tourism and Natura 2000*.
3. **Gössling, S.** (2017). *Tourism, environment and sustainability*.
5. **Honey, M.** (2008). *Ecotourism and Sustainable Development*. Island Press.
6. **Newsome, D., Moore, S., & Dowling, R.** (2013). *Natural Area Tourism*.
7. **Sandell, K., & Bushell, R.** (2007). *Ecotourism and nature-based tourism governance*.
8. **UNWTO.** (2019). *Sustainable Tourism Development Report*.
9. **UNEP.** (2021). *Green Economy and Tourism Report*.
10. **Weaver, D.** (2008). *Ecotourism*.